



Nº 2/2024

ANDIJON DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI

**ADPI
Ilmiy xabarnomasi**

MUNDARIJA

IJTIMOIY GUMANITAR FANLAR

Rasulov B.M., Ergasheva M.G'. O'zbekiston xotin-qizlar bo'limlarining tashkil etilish tarixi va ularning ilk sovet davridagi faoliyat natijalari	4
Yusupova S.N., Oripova.Sh.Q. Andijon viloyatida kam sonli millatlar nufuzining ortishi	7
Toshpo'latov Y. Korrupsiyaga qarshi kurashda yoshlar ma'naviyatini yuksaltirishning ahamiyati	12
Abduraxmonov Sh.K. Aksiologik yondashuv asosida chaqiriqqacha harbiy ta'lif kursantlarida kasbiy madaniyatni rivojlantirish tizimli-funksional modeli	15
Turg'unboyeva D. O'zbekistonda aholi va xalqaro mehnat migratsiyasi	20

ANIQ VA TABIY FANLAR

Sirojidinov B.A. Eksperimental poliploidiya uslubining ilmiy-tadqiqotlarda ahamiyati	24
Muxtarova L.A. Ekologik xavfsizlik madaniyatini fanlararo abscissial va ordinatal aloqadorlikda o'rganish omillari	27
Ахмедов Ш.Б. Обучение некоторых элементарных функций и их применения в экономике для студентов экономических направлений с использованием интеграционного метода	34
Maxsudov O.X. Matematikaning integral hisob usullarini tibbiyot sohasida qo'llanilishi	41
Sadikova A. Sog'lom turmush tarzining genetik omillari va ijtimoiy ahamiyati	44
Xudoyberdiyeva Sh.M. Aqliy operatsiyalarni matematik masalalar orqali shakllantirish	49
Muxsinboyev O.M., Abdurahmonova M.J. Biologiyani o'qitishda fanlararo bog'lanish hamda interfaol usullardan foydalanish metodlari	54

UO'K 94 (575.1) 1920/1930.37

O'ZBEKİSTON XOTIN-QİZLAR BO'LIMLARINING TASHKIL ETİLİŞ TARIXI VA
ULARNING İLK SOVET DAVRIDAGI FAOLİYAT NATİJALARI

<https://zenodo.org/records/12176369>

Rasulov Baxtiyor Maxmudjonovich,
Ergasheva Muhayyoxon G'anijonovna
Andijon davlat pedagogika instituti

Annotatsiya. *Ushbu maqola Turkiston o'lkasi uchun tamoman yangi bo'lgan xotin-qizlar bo'limi faoliyatining tashkil etilishi va uning qonuniy asoslari xususida so'z yuritiladi. Shuningdek SSSR davri xotin-qizlar bo'limlaridagi bирyoqlama siyosat asosidagi ishchilar sinfining qamroviga bag'ishlangan jarayon aniq misollarda izohlangan.*

Kalit so'zlar: xotin-qizlar bo'limlari, savodsizlik kurslari, mакtablar, klublar, mahalliy partiya faollari, komsomollar faollari, "Qo'shchi" uyushmasi, "Hujum" harakati, ta'lim islohotlari.

Аннотация. В данной статье дана научная основа для анализа организации совершенно нового для Туркестана женского ведомства и его правовой основы. Также на конкретных примерах поясняется процесс, посвященный освещению рабочего класса на основе односторонней политики в женотделах периода СССР.

Ключевые слова: женские отделы, курсы неграмотности, школы, клубы, местный партийный актив, комсомольский актив, объединение «Кошчи», движение «Худжум», реформы образования.

Abstract. This article provides a scientific basis for the analysis of the organization of the women's department, which is completely new for Turkestan, and its legal basis. Also, the coverage of the working class based on one-sided policy in women's departments of the USSR period is explained in specific examples.

Key words: women's departments, illiteracy courses, schools, clubs, local party activists, Komsomol activists, "Koshchi" association, "Hujum" movement, educational reforms.

Jamiyatning asosiy madaniy qatlamlaridan biri hisoblangan xotin-qizlar kengashi faoliyatining tarixiy ildizlari, ularni ilk faoliyat natijalari haqida ilmiy asosga ega ma'lumotlarni tahlil etish hozirgi demokratik jamiyatda ayollar faoliyatining asl maqsad mazmunini tup islohotlari natijasini belgilashda amaliy ko'mak beradi. Sovet davri siosiy munosabatlaridagi islohotlar natijasida tashkil etilgan hududlardagi xotin-qizlar bo'limlari bugungi kunga qadar birqancha jarayonlarni amalga oshirgan. Ushbu bo'limlarning dastlabki asosiy vazifalaridan biri bu - o'lka xotin-qizlarini savodsizlik kurslariga tortish va ularni ishchilar sinfiga qo'shishdan iborat edi.

O'zbekiston SSRdagi savodsizlikni tugatish masalasi 1925-yil 17-20-yanvarida Kommunistik partiya Markaziy Komiteti Plenumida batafsil muhokama etildi. Muhokamaga ko'ra mahalliy partiya faollari, komsomollar faollari, "Qo'shchi" uyushmasi vakillari faollari bevosita qishloq hududlardagi ayollar savodsizligi yuzasidan har oyda olib borilgan ishlар hisobotini taqdim etilishi tasdiqlandi [1].

Shu sababga ko'ra, hududlarda tashkil etilgan xotin-qizlar faoliyati bevosita ushbu hududda tashkil etilgan maktablar faoliyatini nazorat qilish va o'quvchilarni mакtabni tashlab ketmasligi uchun barcha chora tadbirlarni ko'rish masalasi bilan bog'landi. Ular faoliyati natijasida maktablarda darsdan bo'sh vaqtarda madaniy dam olish jarayonlari tashkil etilib, madaniy oqartuv ishlari keng yoyildi. Ya'ni ma'naviy tadbirlar namoyishi uyushtirildi, bu jarayon uchun davlat budgetidan alohida mablag' ajratildi. 1925-yilda Xiva shahrida xotin-

qizlar uchun 4 marta spektakl namoyishi uyuştırıldı, 1925-yilning 25-dekabrida bolalar spektakli namoyish etildi. Shaharda Markaziy ayollar va bolalar klublari hamkorligida tashkil qilingan o'quv zalida 450 nusxada kitoblar mavjud bo'lgan. O'quv zaliga 1 oy davomida 660 kishi tashrif buyurgan bo'lsa, ulardan faqat 60 nafari ayollar bo'lgan.

Eski Buxoro maktablari Sovetining 1925-yil 12-dekabrdagi yig'ilishida Sovet raisi Junayev imzosi bilan tasdiqlangan buyruqda aholi savodsizligini tugatish yuzasidan yozgi kurslar tashkil etish, unga 17-22 yoshdagi aholi vakillarini jalg etish, savodsizlikni tugatish kurslarining kunlik dasturida ona tili 2 soatni, rus tili 2 soatni, matematika 3 soat, siyosiy o'qish 1 soatni tashkil etishi belgilangan [2]. 1925-1926-o'quv yilda Toshkent viloyatida umumiy budgetning 24,2 foizi ta'lif sohasi deb ataluvchi savodsizlikni tugatish maktablariga ajratilgan bo'lib, ushbu mablag'ning 40 foizi madaniy tadbirlar tashkil etilishiga sarflangan.

Toshkent viloyat xalq ta'limi bo'limining 1925-1926-o'quv yili yakuni va 1926-1927-o'quv yili 1-choragi uchun bergen yillik hisobotida quyidagi ma'lumotni keltiradi: "Toshkent viloyati xalq ta'limida ayollar ta'limi uchun alohida e'tibor qaratilgan bo'lib, viloyatda 9 ta ayollar mahsus maktablari mavjud. Ushbu maktablarda viloyatning turli hududlaridan kelgan 925 ta o'quvchi qizlar sinf sistemasi asosida yosh kategoriyasiga bo'lingan holda o'qitilmoqda. Bundan tashqari, turli yoshdagi ayollar savodsizligini tugatish yuzasidan 20 ta savodsizlikni tugatish maktablari tashkil etilib, ularda 481 nafar ayollar o'z savodlarini chiqarmoqdalar. Shu o'rinda 1926-1927-o'quv yilining 1-choragida Toshkentning chekka hududlarida ayollar savodsizligini tugatishga mo'ljallangan 8 ta maktab tashkil etib, ularga hududning jami 293 nafar xotin-qizlari jalg etilgan bo'lsa, Mirzacho'l rayonida 8 ta ana shunday maktablarda 297 nafar ayollar savod chiqarishi yo'lga qo'yildi". Andijonda ayni xotin-qizlari mo'ljallangan 2 ta internat bo'lib, ularning biri mahalliy millat qizlari, ikkinchisi yevropa millatiga mansub qizlar uchun mo'ljallangan. Bundan tashqari 1925-yilning 15-dekabrida 30-nafar hech kimi yo'q qizlar uchun maxsus internat ochilgan.

Maktab yoshidan o'tgan va ishchilar sinfiga a'zolik uchun so'raladigan ma'lumotnomaga uchun ayollar uchun ochilgan savodsizlikni tugatish kurslarida mahalliy millat vakillarining soni kam edi. 1925-yilda Xivada ochilgan ana shunday kursda faqatgina 19 nafar ayollar savodini chiqargan bo'lib, ulardan atigi 5 nafari mahalliy millat vakillari edi. Shu yili Urganchda ochilgan ayollar internatida 50 nafar qizlar o'qigan bo'lib, ulardan 16 nafari: 11 nafari o'zbek, 3 nafari tatar, 2 nafari qirg'iz millatiga mansub musulmon tarbiyalanuvchilar bo'lgan. Xiva shahrida mavjud yagona partiya maktabida 10 nafar qizlar ta'lif olgan bo'lib, ulardan 3 nafari o'zbek, qolganlari tatar millatiga mansub bo'lgan. Shu yili hudud xotin-qizlar bo'limi tashabbusi bilan 1 nafar o'zbek qizi 3 yillik o'qituvchilar tayyorlash kursida o'qish uchun Samarqandga yuborilgan.

Hududlarda tashkil etilgan xotin-qizlar bo'limlari faoliyati bevosita hududda tashkil etilgan maktablar faoliyatini nazorat qilish va o'quvchilar maktabni tashlab ketmasligi uchun barcha chora tadbirlarni ko'rish masalasi bilan bog'landi. Ular faoliyati natijasida maktablarda darsdan bo'sh vaqtarda madaniy dam olish jarayonlari tashkil etilib, madaniy oqartuv ishlari avj oldirildi. Ya'ni, ma'naviy tadbirlar namoyishi uyuştırıldı, bu jarayon uchun davlat budgetidan alohida mablag' ajratildi. Bu jarayon arxiv ma'lumotlari asosida tahlil etilganda 1925-1926-o'quv yilida Toshkent okrugida umumiy budgetning 24,2 foizi ta'lif sohasi deb ataluvchi savodsizlikni tugatish maktablariga ajratilgan bo'lib, ushbu mablag'ning 40 foizi madaniy tadbirlar tashkil etilishiga sarflanganini ko'rish mumkin. Respublika hududida "Hujum" harakatiga o'tish munosabati bilan 1926-1927-o'quv yilida savodsizlikni tugatish

maktablari soni 155 taga yetib, ularda o'qiyotgan xotin-qizlar soni esa 4605 kishini tashkil etgan [3]. Biroq ushbu yo'nalishdagi maktablar faoliyatida aholini qamrab olish darajasi barcha hududlarda bir tekis va bir xil kechmagan. Ya'ni, ayrim hududlarda ancha qiyin kechdi. Ochilgan maktablarda o'quvchilar soni tahlil etilsa, ayni "Hujum" harakati faoliyati bilan bog'liq tarzda 1928-1929-o'quv yilida hududda 42 ta xotin-qizlar savodsizligini tugatishga mo'ljallangan yangi mакtab ochilgan bo'lib, ularda 695 nafar xotin-qizlar savod o'rgangan. Bu har bir mакtabga o'rtacha 16-17 tadan xotin-qiz o'quvchilar to'g'ri kelganligini ko'rsatadi.

Biroq ushbu holatlarni, ya'ni xotin-qizlarning savodsizlikni tugatish maktablariga jalb etilishi ko'rsatkichlari pastligini tezlik bilan bartaraf etishga kirishgan hududlar ham mavjud. Masalan, Qo'qon shahar xotin-qizlar klubi qoshida ochilgan mакtab va savodsizlikni tugatishga mo'ljallangan to'garaklar faoliyatida 1928-yilning o'zida 198 nafar xotin-qizlarga savod o'rgatildi. Xuddi shu yili Farg'ona okrugida 265 nafar xotin-qizlar savodsizlikni tugatish maktablarida tahsil olgan bo'lsalar, ularning 100 nafari boshqa savodsiz kishilarga alifboni o'rgatish huquqini qo'lga kiritgan. Qo'qon shahridagi savodsizlikni tugatish kurslarining chalasavodlar guruhida 20 nafar, savodsizlar guruhida 25 nafar ayollar ta'lif olgan. Savodsizlar mакtabiga yil davomida uch marta qabul bo'lgan va har safar 20 nafardan ayollarning savodi oshirilgan.

XX asrning 20-yillari oxiri 30-yillari boshida O'zbekistonda xotin-qizlar savodsizligini tugatish masalasi yuzasida tashkil etilgan klublar faoliyatini VKP(b) Markaziy Qo'mitasining 1927-yil 14-yanvardagi "Sovet Sharqi xotin-qizlar klublarining vazifalari to'g'risida"gi Qaroriga asosan tashkil etish, klublarning eng asosiy faoliyat yo'nalishlari va maqsadlari belgilab berildi [4].

Qarorgacha va qarordan keyingi ijro masalasida alohida faoliyatlar ommaviy tadbirlar va yig'ilishlarda tashviqot ishlari avj oldirildi. 1925-yilning mart oyida Butun o'zbek dehqon ayollar qurultoyi, xotin-qizlar bo'limlari mudirlari o'lka kengashi bo'lib o'tdi. Kengashning asosiy masalasi ayollar savodsizligini tugatishda samarali usullardan foydalanish, siyosiy jarayonlarda ularning faolligini oshirishdan iborat ekanligi ko'rsatib o'tildi.

O'lkada tashkil etilgan ayollar bo'limlarining tarkibidagi ayol ishchi va dehqonlar uyushmalari savodsizlikni tugatish uchun alohida targ'ibot dasturlarini tashkil etganlar. 1927-yil sentabr oyida bo'lib o'tgan ishchi va dehqon ayollar uyushmasi yalpi yig'ilishida "maktablardagi ta'lif jarayoni uchun qilingan islohotlar bu ommaviy savodsizlikni tugatish masalasi hisoblanib, ota-onalar, jumladan onalarning ham ma'lum ma'noda savodli bo'lishlari uchun maktablar qoshida, ayollar bo'limlari qoshida, qizil burchaklar va turli muassasalarda savod o'rgatish to'garaklarining ochilgani va barcha ishchi, dehqon ayollar savod chiqarish faoliyati bilan bevosita bog'lanishi tavsiyasi berilgan.

Barcha tashkilotlarning umumiyligi faoliyati asosida birgina savodsizlikni bartaraf etish masalasi mayjudligini tushunish qiyin emasdi. Chunki asosiy faoliyati savod bilan bog'liq bo'limgan korxona tashkilotlarning ishchilari uchun faqat ayollarga savod o'rganish uchun kunlik mehnat vaqtidan 2 soat vaqt berilishi, ish vaqtida ma'lum sabablar bilan savod o'rganish jarayonida qatnasha olmagan ishchi ayollarga ishdan keyin savod o'rganish kurslari, to'garaklariga qatnashi uchun ma'lum miqdorda pul to'lanishi ham yo'lga qo'yilgan.

Respublikaning boshqa hududlari singari Namangan okrugida ham barcha imkoniyatlar darajasida ayollar bo'limlarining faoliyatida asosan savodsizligini tugatish masalasi uchun urinishlari avj oldi. Barcha soha singari savodsizlikni tugatish maktablari uchun shahar moliya bo'limidan alohida mablag' ajratildi. Bu mablag'larning sarflanishi kurslar va

to'garaklar uchun foydalanadigan gazeta va jurnallar va darslik masalalarini hal etish va kurs tashkil etuvchi o'qituvchilar ish haqiga sarflangan. 1929-yil 31-iyuldagi qarorga muvofiq shahar moliya bo'limidan savodsizlik to'garaklari faoliyati uchun 30 ta shtat va ular uchun 2250 rubl oylik maosh, ularning ba'zi harajatlari uchun 23 rubl haq to'lash belgilangan [5].

1937-yil 25-noyabrda Namangan shahar xotin-qizlar klubida Sharofat Po'latova raisligida bo'lib o'tgan yig'ilishda shahardagi mavjud mahallalardagi 7 yoshdan 40 yoshgacha bo'lgan ayollarga savod o'rgatilishiga qaror qilinadi. Savodsizlik kurlariga qatnagan xotin-qizlarning keyingi faoliyatiga doir masalalar hududning "Xotin-qizlar" bo'limlarida muhokama etilgan va alohida e'tirof etilgan. Zarurat paydo bo'lganida kurslarga qatnovchi ayollarning kichik yoshdagি bolalari uchun maxsus yaslilar ham tashkil etilib, faoliyatning imtiyozlari namoyish etilgan.

Ma'lumotlarda aynan ayollarning savodsizlikni tugatish kurslariga tortilish darajasi erkaklarga qaraganda ancha past bo'lganini ko'rsatadi. Boshqa bir tomondan, mahalliy millatlardan bo'lgan xotin-qizlarning ta'lim tizimiga jalb qilinishi ham ancha past bo'lgan. Ma'lumotlarda savodsizlikni tugatish kurslariga tortilgan mahalliy millat vakillarining xotin-qizlari soni haqida ma'lumot keltirilmagan bo'lsada, bu davrga tegishli boshqa arxiv hujjatlarida bu ko'rsatkich ancha past bo'lgani aks etgan. Ba'zan qizlar maktabga va ayollar savodsizlik kurslariga hukmron firqaning majburlovi yoki birmuncha qo'rquv munosabati bilan qatnagani yaqqol ko'zga tashlanadi.

Xulosa o'rnida, ushbu davr nuqtai nazaridan savodsizlikni tugatish masalasi, uning negizida ayollar savodsizligini tugatishga bo'lgan muhim qarashlar bir qarashda madaniy yangilik, ma'naviy o'sish deb baholangan bo'lsa, aslida butun dunyoga savodsiz deb jar solingan ma'rifatli xalqni bирyoqlama siyosiy jarayonga moslashtirishning bir usuli edi. Davriy munosabatlar madaniy yangilik deb oqlangan bo'lsa, aslida asriy madaniyatni yo'qotish evaziga ushbu jarayon alohida ahamiyatli deb topilganini anglash mushkul emas. Ushbu mavzu yuzasidan olib borilayotgan tadqiqot natijasida O'zbekistonda ayollar savodsizligini tugatishning ham ijobiy, ham salbiy taraflarini ochib berishga harakat qilindi. Shu o'rinda ushbu masalaning tayanch nuqtadagi harakatlanuvchi tashkiloti hisoblangan hududiy ayollar bo'limlarining bugungi kun xotin-qizlar bo'limlaridan tubdan farq qiluvchi faoliyati mavjud ekanligi va siyosiy qarashlar ushbu bo'limlarga bирyoqlamalik bilan emas demokratik qarashlarga hos tarzda o'zgartirilganligini anglash mumkin.

Foydalangan adabiyyotlar:

1. O'z MA, R.94-fond, 1-ro'yxat, 200-ish, 21-22-varaqlar.
2. Buxoro viloyat davlat arxiv, 546-fond, 1-ro'yxat, 5-ish, 161-varaq.
3. Зиёмуҳаммедова М.М. Хотин-қизлар саводсизлигини битириш тарихидан. "Совет мактаби" 1978. №5. – Б. 76.
4. Нишонова В.К. Ўзбекистонда хотин-қизлар масаласини ҳал этишнинг маданий жиҳатлари (20-30 йиллар, тажриба ва оқибатлар: тарих фанлари номз. дисс. – Тошкент, 1998. – Б. 84.
5. Namangan VDA, 12-fond, 1-ro'yxat, 12-ish, 93-varaq.

UO'K 37.0

ANDIJON VILOYATIDA KAM SONLI MILLATLAR NUFUZINING ORTISHI
<https://zenodo.org/records/12191923>

Yusupova Sevara Nizamtdinovna,
Oripova Shahnoza Qodirjon qizi
Andijon davlat pedagogika instituti

Annotatsiya. *Har qanday mamlakat taraqqiyotida ayni davlat hududida istiqomat qiladigan turli*

